MAMATQUL JO‘RAYEVNING XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI TO‘PLASH VA NASHRGA TAYYORLASH FAOLIYATI

Anorboyeva Maftuna Abilqosim qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti
magistratura bitiruvchisi, 2023
E-mail: maftunaustoz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23344143

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek folklorshunosi Mamatqul Jo‘rayevning xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, arxivlashtirish va nashrga tayyorlash borasidagi faoliyati yoritilgan. Olimning folklor ekspeditsiyalaridagi ishtiroki, ustozlari rahbarligidagi ilk tajribalari hamda u to‘plab, nashrga tayyorlagan “El desa Navoiyni”, “Ipak yo‘li afsonalari”, “Bobolardan qolgan naqllar”, “Buxoro afsonalari”, “Qizil gulning g‘unchasi”, “Oy oldida bir yulduz” kabi to‘plamlarning tuzilishi, manbalari va ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Maqola o‘zbek folklorshunosligi tarixini o‘rganuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: folklor, folklor ekspeditsiyasi, afsona, rivoyat, marosim qo‘shiqlari, to‘plam, nashrga tayyorlash, Mamatqul Jo‘rayev.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МАМАТКУЛА ЖУРАЕВА ПО СБОРУ И ПОДГОТОВКЕ К ИЗДАНИЮ ОБРАЗЦОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация. В статье освещается деятельность узбекского фольклориста Маматкула Жураева по сбору, архивированию и подготовке к изданию образцов устного народного творчества. Рассматриваются его участие в фольклорных экспедициях, первый опыт под руководством учителей, а также структура, источники и научное значение подготовленных им сборников «El desa Navoiyni», «Ipak yo‘li afsonalari», «Bobolardan qolgan naqllar», «Buxoro afsonalari», «Qizil gulning g‘unchasi», «Oy oldida bir yulduz». Статья может быть полезна исследователям истории узбекской фольклористики.

Ключевые слова: фольклор, фольклорная экспедиция, легенда, предание, обрядовые песни, сборник, подготовка к изданию, Маматкул Жураев.

MAMATQUL JO‘RAYEV’S ACTIVITY IN COLLECTING AND PREPARING FOR PUBLICATION SAMPLES OF FOLKLORE

Abstract. The article covers the activity of the Uzbek folklorist Mamatqul Jo‘rayev in collecting, archiving and preparing for publication samples of oral folk art. It examines his participation in folklore expeditions, his first experience under the guidance of his teachers, and the structure, sources

and scholarly significance of the collections he prepared, including “El desa Navoiyni”, “Ipak yo‘li afsonalari”, “Bobolardan qolgan naqllar”, “Buxoro afsonalari”, “Qizil gulning g‘unchasi” and “Oy oldida bir yulduz”. The article may be useful for those studying the history of Uzbek folklore studies.

Keywords: folklore, folklore expedition, legend, tale, ritual songs, collection, preparation for publication, Mamatqul Jo‘rayev.

Kirish

Asrlar davomida sayqallanib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini yozib olish, arxivlashtirish ishi o‘ziga xos mashaqqat talab qiladi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, xalq og‘zaki ijodi to‘plovchilarni kimdir javohir to‘plovchiga, yana kimdir dengiz ostidan bebaho inju izlovchi matonatli g‘avvosga o‘xshatishadi. Folklor namunalarini yozib olish, arxivlashtirish va nashrga tayyorlash uzoq tarixga egadir. O‘zbek folklori asarlarining to‘planishi va yozib olinishi xususida so‘z borganda, X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligini ta’kidlash lozim. XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham maqol, matal, rivoyat, afsona kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari yozib qoldirilgan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Gulxaniy, Shayx Sulaymon Buxoriy o‘zbek folklorining ilk to‘plovchilaridir.

O‘zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olish ishlari xususida olim Mamatqul Jo‘rayev tomonidan “O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini bevosita jonli ijro sharoitlarida yozib olish, to‘plab nashr etish va ilmiy o‘rganish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlandi. “Maorif” jurnalining 1918-yil 1-sonli xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plovchilar uchun qo‘llanma chop ettirilishi bilan o‘zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olishga asos solingan” [1, 9-b], – deya bildirilgan asosli ma’lumotlarga tayanishimiz mumkin. Ushbu etnografik ekspeditsiyalarga G‘ozi Olim Yunusov boshchilik qilgan va xalq ijodi durdonalarini to‘plash va ommalashtirish ishlarida tashabbus ko‘rsatgan. Ergash Jumanbul o‘g‘li va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kabi xalq baxshilarini aniqlab, jamoatchilikka tanitgan. Birinchilardan bo‘lib “Alpomish” dostonidan parchalar yozib olgan va bu doston haqida maqolalar yozib, o‘zbek xalq qahramonlik eposini ilmiy o‘rganishni boshlab berganligini ko‘rishimiz mumkin [2, 33–34-b]. “Alpomish” dostonini jahon adabiyotidan “Odisseya” va “Iliada” asarlari bilan qiyoslab o‘rgangan. Xalq og‘zaki ijodi durdonalarini to‘plash, yozib olish va ilmiy asosda o‘rganish borasida salmoqli ishlarni bajargan, butun umrini o‘zbek xalq ijodiyotini to‘plash va ilmiy o‘rganishga bag‘ishlagan zabardast olim, o‘zbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarifov xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz. Zabardast olim Hodi Zarifov rahbarligida va bevosita ishtirokida O‘zR FA O‘zbek tili va adabiyoti va folklori institutida O‘zbek folklori bo‘limi tashkil etildi va xalq og‘zaki badiiy ijodi durdonalari to‘planishi va saqlanib qolishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Hodi Zarifov tomonidan ko‘plab sara xalq ijodi durdonalarini yozib olishga muvaffaq bo‘lgan, jumladan, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan o‘zbek xalqining qahramonlik dostoni “Alpomish”ning mukammal varianti, Jizzax viloyatidan “yo ramazon” qo‘shiqlarining mukammal namunalarini yozib olgan.

Bunday sermashaqqat ishlarning davom ettirilishida o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan biri Mamatqul Jo‘rayevdir. Olim ko‘plab folklor ekspeditsiyalarida faol ishtirok etgan va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi durdonalarini yozib olishga, nashrga tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shgan.

Maqolaning maqsadi – Mamatqul Jo‘rayevning folklor namunalarini to‘plash, arxivlashtirish va nashrga tayyorlash borasidagi faoliyatini, uning to‘plamlari tuzilishi, manbalari va ilmiy ahamiyatini yoritishdir. Tadqiqotda tarixiy-tavsifiy va tahliliy usullardan foydalanildi.

Mamatqul Jo‘rayevning folklor ekspeditsiyalaridagi faoliyati

Mamatqul Jo‘rayevning 1974-yil talabalik yillarida Surxon vohasida Muhammadnodir Saidov rahbarligida o‘tgan dala amaliyoti keyingi folklor ekspeditsiyalari uchun poydevor vazifasini o‘tagan va chuqur iz qoldirgan. Sababi ushbu dala amaliyotida bo‘lajak folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev ilk bor xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining ulkan bilimdoni, “Alpomish”, “Malika ayyor”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining teran tadqiqotchisi professor Muhammadnodir Saidov, mumtoz adabiyot bilimdoni Hasanxo‘ja Muhammadxo‘jayev, yirik tilshunos olimlar Yormat Tojiyev hamda M.A’lamovalarning yo‘l-yo‘riqlari, maslahatlari ko‘magida o‘zbek folklorining bebaho xazinasi bilan yaqindan tanishishga musharraf bo‘ldi. Ana shu dala amaliyotida ustozi Muhammadnodir Saidovdan xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olish usullari, folklor ijrochilari bilan “tillashish sirlari”ni, xalq ijodi asarlarini yozib olayotganda ijrochi mansub shevaning transkripsiyada berilishiga diqqat qilishni, so‘z va iboralarning izohini so‘rab qayd qilib borishni o‘rgandi.

Talabalik yillaridagi folklor va dialektologiya ekspeditsiyasidan bir dunyo taassurotlar bilan qaytgan yosh tadqiqotchi Mamatqul Jo‘rayev xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash maqsadida o‘tkazilgan mazkur ilmiy safar natijalari haqida “Durdona izlab” [3] nomli maqola yozadi. Bu uning xalq ijodi haqidagi ilk maqolasi bo‘lgan.

Olimning o‘zi ilk folklor ekspeditsiyalarini shunday xotirlaydi: “Mening xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti an’analari bilan birinchi bor bevosita tanishuvim, agar ta’bir joiz bo‘lsa, folklorshunos sifatidagi ilk faoliyatim atoqli olim, o‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalarini teran o‘rgangan yirik tadqiqotchi, o‘tgan asrning 70-80-yillarida yetishib chiqqan ko‘plab folklorshunoslarning iste’dodiga qanot baxsh etgan bag‘rikeng murabbiy, ustozimiz Muhammadnodir Saidov rahbarligida aynan Surxon vohasidan boshlangan edi” [4, 25-b]. Bunday folklor ekspeditsiyalari Mamatqul Jo‘rayevni yetuk folklorshunos olim bo‘lib yetishishiga xizmat qilgan. Fikrimizning isboti sifatida, bizga folklorshunoslik bilimlarini bergan jonkuyar ustozimiz taniqli folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov ta’kidlaganlaridek, “…xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini jonli ijro holatida tinglamasdan turib, faqat nazariyani o‘rganib yetuk folklorshunos olim bo‘la olmaydi”, – deya folklor ekspeditsiyalari nechog‘lik muhim ekanliklari haqida aytgan mulohazalarini keltirishimiz mumkin.

Keyingi faoliyatida ham folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashdi. XX asrning 80-yillarida Zarafshon vohasi bo‘ylab o‘tkazgan folklor ekspeditsiyalari mobaynida o‘zbeklarning mifologik tasavvurlari: shamol chaqirish, uni to‘xtatish, yomg‘ir yog‘dirish, oy va quyosh tutilishi, kamalak, chaqmoq, quyun bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlarini izchil to‘pladi. Olimning keyingi faoliyatida ham folklor ekspeditsiyalarida faol ishtirok etgani va tashkilotchilik faoliyatini quyidagi fikrlar ham isbotlaydi: “Mamatqul Jo‘rayev 1980-yildan buyon O‘zRFA Til va adabiyotining an’anaviy Folklor ekspeditsiyasida muntazam qatnashib keladi. Bundan tashqari, u Buxoro davlat universiteti, Navoiy

va Toshkent viloyat davlat pedagogika institutlari talabalari bilan birgalikda hamkorlikdagi folklor ekspeditsiyalarini tashkil etishda faol ishtirok etdi" [5, 322-b].

Olim 1982, 1985-yillarda o‘zi faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limidagi hamkasblari bilan Tojikistonning O‘ratepa tumanidagi Qayirma, Yovon tumanidagi Galabuloq, Qulbuloq, Jalabuloq, Dang‘ara tumanidagi Dang‘ara, Sargarzon, Qo‘shbuloq, Ko‘lob tumanidagi Beshterak qishloqlarida ham folklor ekspeditsiyalarida faol ishtirok etdi. Olim faqat o‘zbek xalq folklori bilan cheklanib qolmasdan, O‘zbekistondan tashqari Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston respublikalarida ham ilmiy safarlarda bo‘ldi. Zukko olimning sermashaqqat faoliyati ustozi va hamkasblari ta'kidlaganidek, "«Kabinet» olimi emas, xalq ichida doimo faol izlanishda bo‘lgan tadqiqotchi sifatida shakllandi" [6, 3–9-b]. Mamatqul Jo‘rayev o‘zining dastlabki folklor ekspeditsiyalari davomida ko‘proq ertak yozib olishga diqqatini qaratdi. Sababi bu vaqtga kelib yosh tadqiqotchi To‘ra Mirzayev ilmiy rahbarligida "O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar(tarixiy asoslari va badiiy funksiyalari)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ustida jiddiy izlanishlarini boshlagan edi. Shu izlanishlarining samarasi o‘laroq, ko‘plab ertaklar yozib oldi. Folklor ekspeditsiyalarida yozib olingan ertaklari xalq nasri tadqiqotchilari uchun zarur manbaga aylandi.

1992-yilda sohaning yetuk mutaxassislaridan biriga aylangan Mamatqul Jo‘rayev folklor amaliyoti jarayonida to‘plagan tajribalari asosida taniqli folklorshunos olim Ohunjon Safarov va Abbos Tursunqulovlar bilan hamkorlikda "Folklor praktikasi" o‘quv-usuliy qo‘llanmasini yaratishda faol ishtirok etdi.

Folklor to‘plamlarini nashrga tayyorlash faoliyati

Xalqimizga istiqlol baxsh etgan eng oliy ne'matlardan biri – ajdodlarimiz ma'naviy merosi sanalmish milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishidir. Ajdodlarimiz ma'naviy meroslaridan biri esa xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi durdonalarini to‘plash va tizimlashtirish, ularni to‘plam holida tuzib chop ettirishda Mamatqul Jo‘rayev bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Olimning folklor namunalarini to‘plam holida nashrga tayyorlash faoliyatini alohida e'tirof etish joiz. Yetuk olim Mamatqul Jo‘rayev folklorshunoslik sohasidagi asosiy ilmiy faoliyati asotir, afsona, rivoyat, ertak kabi epik janrlarni chuqur o‘rganishga qaratgani bois, ularga xos namunalarni to‘plash va nashr etish ishlarida faollik ko‘rsatdi. Shu izlanishlari samarasi o‘laroq, bir necha yirik folklor to‘plamlari nashr qilingan. Jumladan, olim to‘plab, nashrga tayyorlagan "El desa Navoiyni. Hazrat Mir Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar" [7], "Ipak yo‘li afsonalari" [8], "Bobolardan qolgan naqllar" [9], "Qizil gulning g‘unchasi" [10], "Oy oldida bir yulduz" [11], "Ulug‘ oy umidlari" [12], "Buxoro afsonalari" [13], "Dono Alisher" kabi to‘plamlar orqali ajdodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan qadimiy afsona va rivoyatlar, jonbaxsh qo‘shiqlarni xalqqa taqdim etdi. Bu to‘plamlarni zahmatkash olim bevosita joylarda olib borgan folklor ekspeditsiyalari, izlanishlari natijasida to‘plagan materiallari asosida nashrga tayyorlagan.

"El desa Navoiyni" to‘plami

1991-yilda chop etilgan "El desa Navoiyni" kitobi uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi "Alisher bilan bulbul" deb nomlangan. Ushbu qismda hazrat Alisher Navoiy haqidagi o‘zbek xalq rivoyatlari keltirilgan. Ikkinchi qismi "Hozirjavob Mirali" deya nomlanib, unda Alisher Navoiy haqidagi turkman xalq rivoyatlari o‘rin olgan. To‘plamning "Saodatli Amirning sifatlari" deb atalgan

uchinchi qismidagi rivoyatlar ulug‘ tarixchi Xondamir qalamiga mansub “Makorim-ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”) asaridan saralab olingan.

“El desa Navoiyni” to‘plamiga kiritilgan rivoyatlar O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyoti instituti Folklor arxividan va Buxoro viloyatining Jig‘achi qishlog‘ida yashovchi Xayrullo bobo Fayzullayevdan yozib olingan. Rivoyatlarda Mir Alisher Navoiyning betakror g‘azallari, donoligi, hozirjavobligi, uzoqni o‘ylab ish yuritishi aks ettirilgan. Ushbu to‘plam g‘azal mulkining sultoni hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 550 yillik to‘yiga munosib tuhfa bo‘ldi. Bu haqda jurnalist Barchinoy Jo‘rayeva: “Mamatqul Jo‘rayev juda katta ishni amalga oshirgan. Tan olish kerakki, hozirgi kunga qadar bolalarni bobomiz hayoti bilan tanishtiruvchi asarlar deyarli yo‘q edi. Ushbu kitobdan o‘rin olgan rivoyatlar esa bolalarga ertakday yoqib, esda tez saqlab qolishlariga yordam beradi” [14, 4-b], – deydi. Jurnalistning bildirgan fikrlari o‘rinlidir, sababi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning merosini dastlab o‘rganishda bunday sodda, xalq tilidan yozib olingan rivoyatlarning ahamiyati kattadir. Yosh-u katta uchun birdek qiziqarli rivoyatlar berilganligi ushbu to‘plamning qiymatini yanada oshiradi.

Olim tomonidan to‘plab nashr ettirilgan o‘zbek xalq afsona va rivoyatlari nafaqat yurtimizda, balki xorijiy davlatlardagi mutaxassislarning ham e’tiborini tortgan. Fikrimizning yaqqol isboti sifatida quyidagi jumlalarni keltirishimiz mumkin. “… «El desa Navoiyni» to‘plamiga kirgan o‘zbek xalq rivoyatlarini ozarbayjon tiliga tarjima qilgan Fuzuliy Bayot 1996-yilda Bokuda ularni alohida kitob holida nashr ettirilganligi xalqimizning ulug‘ shoiriga bo‘lgan ulkan ehtiromining bir ko‘rinishi bo‘ldi” [4, 157-b].

“Ipak yo‘li afsonalari” to‘plami

Serg‘ayrat olim o‘zbek xalqi badiiy ijodi durdonalarini yig‘ishda davom etib, yana bir qimmatli to‘plamni nashrga tayyorlagan.“Ipak yo‘li afsonalari” to‘plami qadimiy va tabarruk yurtimizdagi ko‘hna shahar va qishloqlar, muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar, joy nomlari to‘g‘risidagi afsonalar asosida tartib berilgan. To‘plamning “Xayolot chechaklari” nomli so‘zboshisida afsona janri tabiati, toponomik afsonalarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek folklorida it-qush ko‘rinishidagi afsonaviy jonzot haqidagi turli xil qarashlarning joy nomlari bilan bog‘liq afsonalar syujetidagi badiiy talqini, toponomik afsonalarning tarixiy afsonalardan farqli tomonlari xususida fikrlar bildirilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan afsona va rivoyatlar, asosan, toponomik xarakterda bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra soddaligi, syujet voqealarining qiziqarliligi, g‘oyaviy-estetik jihatdan ta’sirchanligi bilan alohida ajralib turadi. Majmuadagi xalq afsonalaridan bir guruhi genetik jihatdan xalq mifologiyasiga borib taqalsa, yana boshqasi xalq orasida mashhur bo‘lgan tarixiy shaxslar, aziz avliyolar nomi bilan taalluqlidir. Yana bir guruhi xalqning an’anaviy axloqiy-ma’naviy qarashlarini namoyon qiladi.

Ushbu majmuada o‘lkamizning Xorazm, Xiva, Buxoro, Samarqand, Nurota, Dalvarzintepa, Termiz va boshqa bir qancha qadimiy shaharlarining nomlanishi va paydo bo‘lishi haqida, Qizqal’a, Sulaymon, Jonqor, Zahhoq qal’asi va boshqa qal’alar haqida, Uchqiz tog‘i, Hazrati Dovud g‘ori haqidagi va boshqa bir-biridan qiziqarli afsona va rivoyatlar berilgan.

Bundan tashqari, majmuada bir nom bilan bog‘liq afsonaning turli variantlari ham berilgan. Masalan, “Cho‘ponota”, “Cho‘ponotaning paydo bo‘lishi”, “Cho‘ponotaning daralari”, “Nurota”, “Nurota bulog‘i”, “Hazrati Nur”, “Nurli tosh tushgan joy” kabi afsonalar shular sirasiga kiradi.

“Ipak yo‘li afsonalari” majmuasi Buyuk ipak yo‘lida joylashgan qadimiy o‘lkamiz tarixi, undagi tabarruk va g‘aroyib qadamjolar, moziydan darak beruvchi geografik o‘rin-joylar, tog‘, tepalik, daryo, g‘or, buloqlarning tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Shu sababli ushbu to‘plam folklorshunoslik, tilshunoslik, elshunoslik, jo‘g‘rofiya, tarixshunoslik, madaniyatshunoslik kabi qator fan sohalari tadqiqotchilari uchun ilmiy manba sifatida qimmatli axborot va ilmiy materiallar vazifasini o‘taydi.

Majmuaning izohlar va manbalar ko‘rsatkichi qismi ham bo‘lib, unda toponomik afsona va rivoyatlar manbalariga oid ko‘rsatkichlar, qachon va kim tomonidan yozib olingani haqidagi izohlar berilgan. Bundan to‘plamning g‘oyat sinchkovlik va talabchanlik bilan tartib berilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. To‘plam so‘nggi yillar o‘zbek folklorshunosligidagi eng muvaffaqiyatli chop etilgan folklor to‘plamlaridan biri sanaladi.

“Ipak yo‘li afsonalari” kitobida jami 105 ta afsona va rivoyat keltirilgan bo‘lib, shulardan 31 tasi bevosita Xorazm vohasi bilan aloqadirdir. Boshqa afsona va rivoyatlar O‘zbekistonning qadimiy shahar va qishloq nomlari bilan bog‘liqdir.

Mamatqul Jo‘rayev ushbu to‘plamda Xorazm vohasi bilan bog‘liq o‘zi yozib olgan afsona va rivoyatlar bilan bir qatorda L.S.Tolstova, S.P.Tolstov, G.P.Snesarev kabi rus olimlarining ilmiy asarlarida bu haqida uchraydigan sara namunalarini o‘zbek tiliga o‘girib, o‘quvchilar e’tiboriga taqdim etgan. Misol sifatida S. P. Tolstovning «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab» risolasidan “Devqal’a” afsonasi [8, 117-b], G.P. Snesarev tomonidan yozib olingan “Xorazm va Hurjamol”, “Duldul otlagan” [8] kabi bir qancha afsonalarni keltirishimiz mumkin. Joy nomlari haqidagi afsona va rivoyatlardan tuzilgan “Ipak yo‘li afsonalari” kitobi 2001-yilda Istanbulda Axsan Botir tomonidan turk tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan.

“Bobolardan qolgan naqllar” to‘plami

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng jonkuyar olim yanada kengroq izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan. Xalqimizning og‘zaki badiiy ijodi namunalarini to‘plab, nashrga tayyorlashda katta jonbozlik ko‘rsatdi. Buni biz “Bobolardan qolgan naqllar” to‘plami orqali ham bilishimiz mumkin. Mazkur majmua 1998-yilda nashr etilgan. “Bobolardan qolgan naqllar” to‘plamida keltirilgan afsona va rivoyatlar, asosan, olimning Nurota hududida olib borgan folklor-etnografik ekspeditsiyalari jarayonida o‘zi to‘plagan va nurotalik xalq ijodi an’analarining bilimdoni, yetuk baxshi Rahmatulla Yusuf o‘g‘lidan yozib olganligi haqida Darmonoy O‘rayeva ham ma’lumot berib ketgan. Bundan tashqari elimiz orasida keng tarqalgan afsona, rivoyat, irim-sirim va xalq taqvimi namunalari ham o‘rin olgan. “Bobolardan qolgan naqllar” to‘plami “Olisdagi yulduz shu’lasi”, “Toshga aylangan suluv”, “Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga”, “Asrlarga tengdosh iboralar”, “Sumbulada suv tinar” kabi bir-biridan qiziqarli va o‘qimishli besh fasldan iborat. Ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun xalq og‘zaki ijodiga mansub afsona, rivoyat, irim-sirim va o‘zbek xalq taqvimi xususidagi keng ko‘lamli mulohazalari o‘ziga xos manba vazifasini o‘taydi. Yana bir e’tiborli jihati shundaki, majmuaning har bir fasli bo‘yicha manba ko‘rsatkichlari va ilmiy izohlari berilgan. To‘plamning “El deya oralab” sarlavhali kirish maqolasi Ulug‘bek Sattorov bilan hamkorlikda yozilgan bo‘lib, unda nurotalik Rahmatulla Yusuf o‘g‘lining hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar, uning to‘plovchilik faoliyati, epik bilimi, repertuari ko‘lami, folklor asarlarini to‘plashdagi tashabbuskorligi va fidoiyligi, o‘ziga xos jihatlari haqida qimmatli ma’lumotlar

keltirilgan. Baxshi-shoir yozib qoldirgan materiallar va Somon yo‘li haqidagi asotirlarning tarixiy-mifologik qarashlar tizimiga bog‘liq ekanligi bayon qilingan.

To‘plam sinchkovlik bilan ipga tizilgan marjon kabi o‘ziga xos tuzilgan bo‘lib, har bir fasli keltirilgan folklor namunalari mazmuniga mos tarzda nomlangan. Majmuaning birinchi fasli “Olisdagi yulduz shu’lasi” deya nomlangan bo‘lib, unda Rahmatulla Yusuf o‘g‘li tomonidan yozib olingan Olasag‘ar, Temir qoziq, Angur bilan Tangur, Qambar yulduz kabi samoviy miflar, ajdarho, dev, pari kabi mifologik obrazlar qatnashgan afsonalar, Abu Ali ibn Sino, Navoiy va Husayniy, Fuzuliy kabi tarixiy shaxslar bilan bog‘liq rivoyatlar keltirilgan. “Toshga aylangan suluv” nomli ikkinchi faslida Nurota tumani atrofidagi geografik joy nomlari bilan bog‘liq afsonalar hamda toponimik rivoyatlar berilgan. Uchinchi fasli “Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga” deb nomlanib, jonivor, o‘simliklar va narsa-hodisalar bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlar va afsonalar keltirilgan. “Asrlarga tengdosh iboralar” nomli to‘rtinchi fasl Nurota tog‘ tizmasi atroflarida yashovchi o‘zbeklarning irim-sirimlari va aytimlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu faslda nurotaliklarning dehqonchilik, chorvachilik bilan bog‘liq qadimiy ishonchlari pirovardida paydo bo‘lgan ibora-aytimlar mohiyati batafsil keltirilgan.

Xalqimiz orasida salkam unutilib borayotgan qadimiy xalq taqvimiga doir ma’lumotlar “Sumbulada suv tinar” nomli beshinchi faslda keltirilgan. Ushbu faslda qadimgi ajdodlarimizning solnomasi-oylarning eskicha nomlari, ularning almashinish belgilari va ularga aloqador naqllar tartib bilan berilgan.

“Bobolardan qolgan naqllar” majmuasi aniq bo‘limlarga taqsimlanganligi, folklor janrlarining rang-barangligi va mavzuiy turkumlanganligi uning qiymatini yanada oshirgan deb hisoblaymiz. To‘plamning yana bir o‘ziga xos tomoni, ma’naviy merosimizni boyitish va saqlab qolish, folklor namunalarini yozib olib to‘plashda jonkuyarlik ko‘rsatgan fidoyi kishilar faoliyatini targ‘ib qilish jihatidan ahamiyatlidir.

Istiqlol sharofati tufayli bunday to‘plamlar nashr etildi, sababi, Mamatqul Jo‘rayev o‘zi to‘plagan xalq tabu va irimlarini mavjud mustabid tuzum mafkurasi ta’sirida nashr qildirishga imkon topolmagan. Hattoki uning ko‘p yillik mehnati evaziga yuzaga kelgan “O‘zbek xalq irimlari” kitobi 1990-yilning oxirida nashriyotda bosilish arafasida turganida sho‘ro davri tazyiqi ta’sirida nashrdan to‘xtatilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir. “Bobolardan qolgan naqllar” to‘plami istiqlol sharofati tufayli Folklor arxivida saqlanayotgan materiallarni xalqqa yetkazdi. Bu haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirishimiz mumkin: “Inonch-e’tiqodlar, irim-sirimlar va ular bilan bog‘liq aytim hamda alomatlarni to‘plash ishini o‘z davrida xalq ijodi an’analarining zukko bilimdoni, elimiz orasida keng tarqalgan afsona, rivoyat, ertak, naql va mifologik qarashlarni, turli irim-sirimlarni to‘plash bilan shug‘ullangan Rahmatulla Yusuf o‘g‘li ham amalga oshirgan edi. U yig‘ib, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folklor arxiviga topshirgan materiallar asosida Mamatqul Jo‘rayev va Ulug‘bek Sattorovlar “Bobolardan qolgan naqllar” kitobini nashr qildirganlar” [4, 57-b].

“Bobolardan qolgan naqllar” to‘plami xalq og‘zaki ijodi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga, folklorshunos tadqiqotchilarga, adabiyot ixlosmandlariga va filolog talabalar uchun qimmatli manbadir. Sababi xalqimiz badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan mif va afsonalarning yangidan-yangi namunalari, Nurota tumani toponimik rivoyatlari, irim-sirimlar bilan bog‘liq ba’zi aytimlar va

alomatlar, zukko hisobdonlar amaliyotida og‘zaki tarzda yashab kelayotgan qadimiy xalq taqvimiga doir qiziqarli ma’lumotlar o‘quvchini o‘ziga ohangrabodek tortadi.

“Buxoro afsonalari” to‘plami

Betakror tarixiy obidalari va umrboqiy qadriyatlari bilan olam ahlini o‘ziga maftun etib kelayotgan qadimiy Buxoro chinakam afsonalar o‘lkasi sanaladi. Buxoro go‘shasidagi qay bir imoratga boqsangiz, albatta, u haqdagi qiziqarli afsona-yu, rivoyatlar mavjudligiga guvoh bo‘lasiz. Mamatqul Jo‘rayevning shogirdi R.Saidova bilan hamkorlikda to‘plab, nashrga tayyorlagan “Buxoro afsonalari” to‘plami Buxoro viloyati haqida yozib olingan xalq afsonalari va rivoyatlaridan iborat bo‘lib, O‘zbekistonimizning har bir qadimiy hududiga aloqador afsona va rivoyatlarni mana shu tarzda yig‘ib, nashr ettirishdek xayrli ishga keng yo‘l ochdi.

Majmuaning “Qadimiy afsonalar diyori” deb nomlangan tadqiqot qismida Buxoro xalq afsona va rivoyatlarining yozib olinishi va o‘rganilishi tarixiga nazar solinib, o‘zbek folkloridagi Xoja Ubbon, Gavomard va Qirq qiz obrazlarining genetik asoslarini yoritib bergan. Bu obrazlarga daxldor afsonalarning mifologik mohiyati, kelib chiqishi borasida arxeologiya, etnologiya, tarix va folklorshunoslikka oid manbalardagi qarashlarni o‘zaro qiyoslash jarayonida teran ilmiy-nazariy xulosalar qilingan.

To‘plamning afsona va rivoyatlar manbalariga oid ko‘rsatkichi g‘oyat sinchkovlik bilan tayyorlangan: u yoki bu afsona va rivoyatning qachon va kim tomonidan yozib olingani, o‘sha afsona va rivoyat motivi va obrazlari haqida manbalardagi ma’lumotlargacha yig‘ib berilganligi kitobning ilmiy-amaliy salmog‘ini yanada oshirgan.

Kitobda berilgan afsona rivoyatlarning yozib olingan manbalar ko‘rsatkichi Mamatqul Jo‘rayev tomonidan tartib berilgan. R.Saidova, asosan, afsona va rivoyatlarning to‘plovchisi sifatida ishtirok etgan.

Majmuaning salmoqli qismini afsona va rivoyatlar tashkil qiladi. Ularning jami miqdori 130 tadir. Aksariyati ilk bor e’lon qilinayotganligi bilan tahsinga sazovordir. “Buxoro afsonalari” to‘plamining nashr etilishi bu janr namunalarining lokal xususiyatlarini namoyon etishi barobarida qadimiy yurtimizning yana boshqa vohalariga tegishli shunday asarlarni to‘plab, nashr ettirishdek ishga keng yo‘l ochadi.

Marosim qo‘shiqlari to‘plamlari

Xalq og‘zaki ijodi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, ilmiy-adabiy jamoatchilik jonkuyar olim Mamatqul Jo‘rayevni serqirra folklorshunos olim sifatida biladilar. Olim o‘zining ilmiy faoliyati davomida o‘zbek folklorining barcha janrlariga oid salmoqli materiallar to‘plagan. Bu esa olimning tashabbusi va bevosita ishtirokida chop etilgan to‘plamlar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, olim o‘zbek xalq nikoh to‘yi marosimining “bet ochar” qismida maxsus kuylanadigan “kelin salom” janridagi qo‘shiqlarni yig‘ib, ularni shogirdi O.Ismonova bilan birgalikda nashrga tayyorlab, “Qizil gulning g‘unchasi” nomi ostida nashr ettirdi. To‘plamning “Kelin keladi loladay” nomli so‘zboshisida kelin salom janrining o‘ziga xos tabiati, g‘oyaviy va badiiy-kompozitsion xususiyatlari, obrazlar tarkibi, ayrim an’anaviy ramziy obrazlarning kelin salomlarda o‘ziga xos ma’no-mazmun tashib kelishi, ularda band qurilishi va qofiya tizimi borasida ba’zi mulohazalarni bildirganlar.

2000-yilda o‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari bilan qiziquvchi keng kitobxonlarga mo‘ljallangan “Oy oldida bir yulduz” to‘plami xalqimizning sara marosim qo‘shiqlaridan tuzilgan. Ushbu majmuada, asosan, xalqimiz orasidan yozib olingan beshik, sunnat va nikoh to‘ylariga aloqador marosim qo‘shiqlari chop ettirilgan. To‘plamning “Oltin beshik taronalari” nomli birinchi faslida chaqaloqni beshikka belayotganda aytiladigan marosim aytimlarining o‘n besh variant, chaqaloqni beshikdan olayotganda aytiladigan aytimlarning besh varianti, chaqaloqni ilk bor cho‘miltirayotganda ijro etiladigan aytimlarning uch varianti, chaqaloq besh kunlik, to‘qqiz kunlik bo‘lganda ijro etiladigan aytimlarning yetti varianti, chaqaloqqa isiriq tutatilayotganda aytiladigan aytimlarning yigirma varianti Zarafshon vohasi folklori materiallari asosida tuzilgan. Shu bilan birgalikda, kitobda sunnat to‘yiga aloqador to‘yga chorlov-jar qo‘shiqlari, sunnat qilinayotgan bola va uning ota-onasini muborakbod etish qo‘shiqlari, nikoh to‘yi urf-odatlariga hamohang tarzda kuylanadigan rang-barang marosim qo‘shiqlari: kelinni va kelin yoki quda tomonidan tashrif buyuruvchi yangalarni, qudalarni kutib oluvchi va ularni olqishlovchi qo‘shiqlar, chimildiq bilan bog‘liq qo‘shiqlar, yor-yorlar, lapar va o‘lanlar, kelin-kuyovga baxt tilovchi olqish-aytimlar joy olgan. Mana shu jihatiga ko‘ra, ushbu majmua o‘zbek folklorshunosligida to‘y marosimi va unga aloqador qo‘shiqlarning tabiati va tasnifini o‘rganishda qimmatli manbadir.

Majmuaning yana bir e’tiborli jihati shundaki, unda boshqa folklorshunoslar tomonidan yig‘ib, chop ettirilgan xalq qo‘shiqlari orasidan e’tibor bilan saralab olingan og‘zaki ijod namunalaridan tashqari, hali jamoatchilikka e’lon qilinmagan folklor durdonalarini ham uchratasiz. Jumladan, sunnat to‘yida kuylanadigan marosim qo‘shiqlari, nikoh to‘yida kuylanadigan “Antalho” va “Ishimma” qo‘shiqlarini misol qilib aytishimiz mumkin. Yana bir ahamiyatli tomoni, majmuada to‘y marosimlari har bir mayda qismlarigacha poetik aytimlari bilan berilgan.

To‘plamga kiritilgan aksariyat qo‘shiqlarni Mamatqul Jo‘rayev xalq orasida yurib yig‘ganligi sabab xalqona ohang va ijrochi shevasi qanday bo‘lsa, shundayligicha kitobxonga taqdim etgan. Shu sababli, o‘zbek xalq marosim qo‘shiqlarining hududiy turlanishlari, udumlar rang-barangligi va ezgu niyat ila ostonasi tillo uyga qadam tashlayotgan kelin-kuyov poyiga poyandoz qilib to‘shalgan xalq qo‘shiqlarining betakror nafosati tabiiyligicha kitobxon ko‘ngil olamiga jo bo‘ladi. “Ishimma” qadimiy qo‘shig‘ini tiklash maqsadida xalq e’tiboriga havola qilingan. “Ishimmajon ishimma” aytimi kelin-kuyovni chimildiqqa kiritish va kelinni olov aylantirishda aytiladigan qo‘shiqlardan biri bo‘lib, bugungi kunda butunlay xotiradan ko‘tarilib, iste’moldan chiqqan. Mamatqul Jo‘rayev uni yozib olib, qadimiyligini aniqlab, “Oy oldida bir yulduz” to‘plamiga joylagan.

Olimning keyingi ilmiy-tashkiliy faoliyati

Mamatqul Jo‘rayev doimiy ilmiy izlanishlarda bo‘lib, xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini to‘plashda davom etgan. Olimning tashabbusi va ilmiy izlanishlari natijasida 2016-yilda “Navro‘z taronalari”, “Qoshi ko‘zi pilikday”, “Ikki ko‘ngil bir bo‘lsin: “yor-yor”lar” kabi folklor to‘plamlari nashr etildi. Olimning bunday folklor to‘plamlari va marosim qo‘shiqlarini to‘plab, nashr ettirganligi, xalqimizning nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylash, muhofaza qilish, yosh avlodga yetkazish yo‘lida qilgan xizmatlari e’tirofga sazovordir.

1996-yildan umrining so‘nggiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, San’atshunoslik ilmiy tekshirish instituti, O‘zbekiston teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Ostonasi tillodan” folklor ekspeditsiyasi hamda 2001-2004-yillarda

YUNESKO tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Boysun” xalqaro folklor ekspeditsiyasining a’zosi sifatida o‘zbek folklorini to‘plash va sistemalashtirishda faol ishtirok etdi.

Iste’dodli folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi, urf-odat va marosimlarining puxta bilimdoni, mohir tadqiqotchi va targ‘ibotchilaridan biri sifatida mustaqillikkacha va mustaqillik davrida ham xalqimiz ongiga milliy qadriyatlarimizni g‘ururlanish hissini singdirishda salmoqli ishlar qilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tarixiy xotirani tiklash, milliy o‘zligimizni anglashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishga qaratilgan yuksak e’tibor tufayli olimning bu boradagi faoliyati yanada jadallashgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan “2010-2020-yillarga mo‘ljallangan nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturiga binoan “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 20 jildi nashr etilishida ishtirok etgan.

Xulosa

Tadqiqot Mamatqul Jo‘rayevning folklor namunalarini to‘plash va nashrga tayyorlash faoliyati o‘zbek folklorshunosligida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Olim talabalik yillaridagi dala amaliyotidan boshlab umrining oxirigacha folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashib, Surxon, Zarafshon, Nurota, Buxoro, Xorazm kabi hududlardan o‘zbek folklorining betakror namunalarini yozib oldi.

Olim tomonidan tuzilgan “El desa Navoiyni”, “Ipak yo‘li afsonalari”, “Bobolardan qolgan naqllar”, “Buxoro afsonalari”, “Qizil gulning g‘unchasi”, “Oy oldida bir yulduz” kabi to‘plamlar afsona, rivoyat, irim-sirim va marosim qo‘shiqlarini saqlab qolish hamda ilmiy muomalaga kiritishda katta ahamiyatga ega. Ularning aksariyati kirish maqolalari, izohlar va manbalar ko‘rsatkichi bilan ta’minlangani, ayrimlari xorijiy tillarga tarjima qilinganligi to‘plamlarning ilmiy salmog‘ini oshiradi. Bu to‘plamlar folklorshunoslik bilan birga tilshunoslik, tarix, elshunoslik va madaniyatshunoslik sohalari tadqiqotchilari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mamatqul Jo‘rayevning mazkur faoliyati xalqimizning nomoddiy madaniy merosini asrash, muhofaza qilish va yosh avlodga yetkazishga qo‘shilgan sezilarli hissa sifatida e’tirofga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек фольклоршунослиги масалалари // Илмий тўплам VI. – Тошкент, 2017. – 9-б.
2. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент, 1928. – 33–34-б.
3. Дурдона излаб (ТошДУ талабаларининг фольклор экспедицияси) // Ёш ленинчи. – 1977, 24 май.
4. Ўраева Д. Семурғ қўнар давлатманднинг бошига. – Тошкент: Turon Zamin Ziyo, 2017. – 25, 57, 157-б.
5. Жўраев М. Ўзбек фольклоршунослиги. – Тошкент: Firdavs-Shoh, 2021. – 322-б.
6. Жўраев М. Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – 3–9-б.
7. Жўраев М. Эл деса Навоийни. Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақида ривоятлар. – Тошкент: Чўлпон, 1991.
8. Жўраев М. Ипак йўли афсоналари. – Тошкент: Фан, 1992. – 128 б.

9. Жўраев М., Сатторов У. Боболардан қолган нақллар. – Тошкент: Фан, 1998.
10. Жўраев М., Исмонова О. Қизил гулнинг ғунчаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1999.
11. Жўраев М. Ой олдида бир юлдуз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.
12. Жўраев М. Улуғ ой умидлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001.
13. Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.
14. «Тошкент ҳақиқати» газетаси. – 1991, 20 август. – 4-б.